



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Аманджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш босқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta’siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug’urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta’siri.....	153
Mirzayeva L.S. O‘zbekiston qimmatli qog‘ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo‘llari.....	157
Очиллов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo’stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo’stonova N.A., Nematjonova R.D. O‘zbekistonda aholining daromadlari va iste’mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta’siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyozov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo‘yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro‘li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta’minlashda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning o‘rni.....	221
Mamatov B.S. O‘zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta’minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o‘rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтакавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o‘rtasidagi munosabatlar..	272

ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISH ORQALI SUG‘URTA KOMPANIYALARINING
MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH MEKANIZMLARI

МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ СТРАХОВЫХ
КОМПАНИЙ ПОСРЕДСТВОМ ВНЕДРЕНИЯ ПРИНЦИПОВ ESG.

MECHANISMS FOR INCREASING THE FINANCIAL SUSTAINABILITY OF
INSURANCE COMPANIES THROUGH THE IMPLEMENTATION OF ESG PRINCIPLES

Nosirov Suxrobjon Nodirjon o‘g‘li

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Iqtisodiyot fakulteti, Moliya va Kredit kafedrası stajyor o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur tadqiqot sug‘urta kompaniyalarida ESG tamoyillarini joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikni oshirish mexanizmlarini konseptual va tahliliy jihatdan o‘rganadi. Tadqiqot empirik modelga emas, balki ilmiy adabiyotlarning chuqur sintezi asosida ESGning moliyaviy barqarorlikka qanday mexanizmlar orqali ta’sir qilishini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: ESG, moliyaviy barqarorlik, sug‘urta sektori, risk-menejment, barqaror rivojlanish

Данное исследование концептуально и аналитически изучает механизмы повышения финансовой устойчивости страховых компаний посредством внедрения принципов ESG (экологические, социальные и управленческие факторы). В отличие от эмпирических моделей, исследование основано на глубоком синтезе научной литературы с целью выявления каналов воздействия ESG на финансовую устойчивость.

Ключевые слова: ESG, финансовая устойчивость, страховой сектор, управление рисками, устойчивое развитие

This study conceptually and analytically examines the mechanisms through which the implementation of Environmental, Social, and Governance (ESG) principles enhances financial stability in insurance companies. Rather than relying on empirical modeling, the research is based on a comprehensive synthesis of the academic literature to identify the channels through which ESG affects financial stability.

Keywords: ESG, financial stability, insurance sector, risk management, sustainable development

Zamonaviy moliya tizimida barqarorlik masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, global iqtisodiy noaniqliklar, iqlim o‘zgarishi va moliyaviy inqirozlar moliya institutlaridan yuqori darajadagi barqarorlikni talab qilmoqda. Sug‘urta sektori risklarni qayta taqsimlash mexanizmi sifatida iqtisodiyotning uzluksiz ishlashini ta’minlovchi muhim bo‘g‘in hisoblanadi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, so‘nggi yillarda O‘zbekiston sug‘urta bozorida sezilarli o‘sish kuzatilmoqda, “2024-yilda O‘zbekistonda istiqbolli loyihalar bo‘yicha milliy agentlik ma’lumotlariga ko‘ra, qariyb 10 million sug‘urta shartnomasi imzolangan. Agentlikning xabar berishicha, sug‘urta mukofotlarining umumiy hajmi 9,8 trillion so‘mga yetdi, bu 2023-yilga nisbatan 21% ga oshgan. Yil davomida sug‘urta to‘lovlari 2,2 trillion so‘mni tashkil etdi, bu o‘tgan yilga nisbatan 9% ga oshganini ko‘rsatadi. Sug‘urta kompaniyalarining umumiy aktivlari 11,8 trillion so‘mdan oshdi va bu o‘tgan yilga nisbatan 24,9% ga oshgan” [1], biroq uning YaIMdagi ulushi hali ham past darajada qolmoqda. Bu esa sug‘urta sektorining moliyaviy barqarorligini oshirish va uning iqtisodiyotdagi rolini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, mamlakatimizda moliya

sektorini modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son [2] Farmoni va boshqa normativ hujjatlar moliya tizimida samaradorlik va barqarorlikni oshirishga qaratilgan. Shuningdek, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi ESG tamoyillarini joriy etishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ESGning moliyaviy barqarorlikka ta’sirini baholash emas, balki uning qanday mexanizmlar orqali amalga oshirishini ochib berishdan iborat. Ilmiy adabiyotlarda ESG (Environmental, Social, Governance) omillarining moliyaviy natijalarga ta’siri keng o‘rganilgan bo‘lib, aksariyat tadqiqotlar “ESG va moliyaviy ko‘rsatkichlar o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi” [3]. Shuningdek, ESG kompaniyalar uchun risklarni kamaytirishning muhim mexanizmi sifatida qaraladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “ESG amaliyotlarini faol qo‘llaydigan kompaniyalarda operatsion, ekologik va reputatsion risklar darajasi pastroq bo‘ladi” [4]. Ayniqsa, ekologik omillar iqlim bilan bog‘liq xavflarni kamaytirishga xizmat qilsa, ijtimoiy omillar manfaatdor tomonlar bilan barqaror aloqalarni shakllantiradi, boshqaruv (governance) omillari esa ichki nazorat va qaror qabul qilish jarayonlarini takomillashtiradi. Natijada kompaniyalar tashqi shoklarga nisbatan chidamliroq bo‘ladi. Nazariy jihatdan ESG konsepsiyasi manfaatdor tomonlar nazariyasiga asoslanadi, u R. Edward Freeman tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur nazariyaga ko‘ra, “korxonalar faqat aksiyadorlar manfaatini emas, balki barcha manfaatdor tomonlar - mijozlar, xodimlar, investorlar va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda faoliyat yuritishi lozim” [5]. Aynan shu yondashuv ESG tamoyillarining mohiyatini tashkil etib, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning nazariy asosini yaratadi. Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarning aksariyati ESGning moliyaviy natijalarga ta’sirini empirik jihatdan baholash bilan cheklanadi. Ayniqsa, sug‘urta sektorida ESGning moliyaviy barqarorlikka ta’sir kanallari risklarni boshqarish, investitsiya strategiyasi va mijozlar ishonchi orqali qanday amalga oshishi kam tadqiq qilingan. O‘zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda moliyaviy barqarorlik asosan an’anaviy yondashuvlar risk-menejment, kapital yetariligi va likvidlikni ta’minlash orqali izohlanadi. Xususan, R.S. Azimov – “moliyaviy barqarorlikni ta’minlashda risklarni samarali boshqarish va institutsional mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydi” [6]. Biroq ushbu tadqiqotlarda ESG tamoyillari alohida tizim sifatida ko‘rib chiqilmagan va uning moliyaviy barqarorlikka ta’siri yetarli darajada integratsiyalashgan holda o‘rganilmagan.

ESG tamoyillarining sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligiga ta’sir mexanizmlarini aniqlash uchun konseptual va tahliliy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot empirik modelga emas, balki ilmiy adabiyotlarning chuqur tahlili va sinteziga asoslanadi.

Metodologiya doirasida quyidagi usullar qo‘llanildi:

- Sistemali adabiyotlar tahlili (systematic literature review) — ESG va moliyaviy barqarorlik bo‘yicha xalqaro ilmiy tadqiqotlar o‘rganildi;

- Taqqoslash tahlili - rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi solishtirildi;

- Konseptual modellash ESG omillarining moliyaviy barqarorlikka ta’sir mexanizmlari nazariy jihatdan tizimlashtirildi.

Tadqiqotning asosiy e’tibori ESGning moliyaviy natijalarga bevosita ta’sirini emas, balki uning risklarni kamaytirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, ijtimoiy ishonchni kuchaytirish va investitsiya siyosatini takomillashtirish orqali amalga oshadigan bilvosita mexanizmlarini aniqlashga qaratildi.

ESG tamoyillarining sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligiga ta’siri to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki ko‘p bosqichli va o‘zaro bog‘liq mexanizmlar orqali amalga oshadi. Ushbu mexanizmlar risklarni boshqarish, boshqaruv samaradorligi, ijtimoiy ishonch va investitsiya siyosati orqali namoyon bo‘ladi.

1. Risklarni kamaytirish mexanizmi

ESGning ekologik (E) komponenti sug‘urta kompaniyalariga iqlim o‘zgarishi, tabiiy ofatlar va ekologik xavflarni oldindan baholash imkonini beradi. Bu esa underwriting (risk baholash) sifatini oshirib, noto‘g‘ri sug‘urta qarorlarini kamaytiradi. Natijada zararlar ehtimoli pasayadi va kompaniyaning to‘lovga qobiliyati (solvency) mustahkamlanadi. Bundan tashqari, “ESG operatsion

va reputatsion risklarni ham kamaytiradi. ESG standartlariga rioya qiluvchi kompaniyalar huquqiy jarimalar va imij yo‘qotish xavfiga kamroq duch keladi” [7].

2. Boshqaruv samaradorligi mexanizmi

“ESGning boshqaruv (G) komponenti korporativ boshqaruv tizimini takomillashtiradi. Bu quyidagilar orqali amalga oshadi:

- ichki nazorat tizimini kuchaytirish
- shaffoflikni oshirish
- manfaatlar to‘qnashuvini kamaytirish” [8]

Natijada resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi, operatsion xarajatlar kamayadi va rentabellik ko‘rsatkichlari (ROA, ROE) yaxshilanadi. Shu orqali moliyaviy barqarorlik mustahkamlanadi.

3. Ijtimoiy ishonch mexanizmi

Ijtimoiy (S) komponent sug‘urta kompaniyalarining mijozlar, investorlar va jamiyat bilan munosabatlarini yaxshilaydi. ESGga rioya qiluvchi kompaniyalar:

- yuqori darajada ishonchga ega bo‘ladi
- mijozlar bazasini kengaytiradi
- uzoq muddatli shartnomalar ulushini oshiradi

Bu esa sug‘urta mukofotlari hajmining oshishiga va daromadlarning barqarorligiga olib keladi.

4. Investitsiya sifati mexanizmi [9]

Sug‘urta kompaniyalari yirik investorlardan biri sifatida ESG asosida investitsiya siyosatini yuritadi. ESGga mos aktivlarga investitsiya qilish:

- portfel risklarini diversifikatsiya qiladi
- uzoq muddatli barqaror daromadni ta‘minlaydi
- likvidlikni oshiradi

Natijada kompaniyaning investitsiya portfeli sifat jihatdan yaxshilanadi va moliyaviy barqarorlik kuchayadi.

Ushbu mexanizmlarning moliyaviy barqarorlikka ta‘sirini quyidagi 1-jadvalda ko‘rishingiz mumkin.

1-jadval

ESG mexanizmlari va moliyaviy barqarorlikka ta‘siri [10]

Mexanizm	ESG komponenti	Ta‘sir kanali (batafsil)	Moliyaviy natija	Yakuniy effekt
Risklarni kamaytirish	E	Iqlim o‘zgarishi, tabiiy ofatlar va ekologik xavflarni prognozlash imkoniyati oshadi. Underwriting jarayonida risklar aniqroq baholanadi, zarar ehtimoli va noto‘g‘ri sug‘urta qarorlari kamayadi.	Sug‘urta to‘lovlari va zararlar kamayadi, rezervlar barqaror shakllanadi	Solvency (to‘lovga qobiliyat) oshadi va moliyaviy barqarorlik mustahkamlanadi
Boshqaruv samaradorligi	G	Korporativ boshqaruv yaxshilanadi: ichki nazorat kuchayadi, shaffoflik oshadi, manfaatlar to‘qnashuvi kamayadi. Qaror qabul qilish jarayoni optimallashtiriladi.	Operatsion xarajatlar kamayadi, aktivlardan foydalanish samaradorligi oshadi, ROA/ROE yaxshilanadi	Rentabellik oshadi va kompaniya moliyaviy jihatdan barqarorlashadi
Ijtimoiy ishonch	S	Mijozlar, investorlar va jamiyat bilan barqaror aloqalar shakllanadi. Kompaniya reputatsiyasi oshadi, brend ishonchliligi kuchayadi.	Sug‘urta mukofotlari hajmi oshadi, daromadlar barqarorlashadi	Barqaror pul oqimlari shakllanadi va moliyaviy xavflar kamayadi

Investitsiya sifati	E + G	ESG mezonlariga mos aktivlarga investitsiya qilinadi. Portfel diversifikatsiyasi oshadi, yuqori risklik aktivlar ulushi kamayadi.	Investitsiya portfeli sifati yaxshilanadi, daromadlar barqaror bo‘ladi	Likvidlik oshadi va umumiy moliyaviy barqarorlik kuchayadi
---------------------	-------	---	--	--

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ESG tamoyillari sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligiga ko‘p kanallik mexanizm orqali ta’sir ko‘rsatadi. Eng muhim jihat shundaki, ESG bevosita moliyaviy natijani emas, balki risklarni kamaytirish, boshqaruvni yaxshilash va ishonchni oshirish orqali bilvosita ta’sir qiladi. Bu esa ESGni strategik boshqaruv instrumenti sifatida ko‘rib chiqish zarurligini asoslaydi. ESG tamoyillarini sug‘urta kompaniyalarida joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikni oshirish mexanizmlarini konseptual jihatdan asoslab berdi. Natijalar ESG omillari moliyaviy barqarorlikka bevosita emas, balki risklarni kamaytirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, ijtimoiy ishonchni kuchaytirish va investitsiya siyosatini takomillashtirish orqali bilvosita ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi.

Amaliy jihatdan, O‘zbekiston sug‘urta sektorida ESG tamoyillarini joriy etish moliyaviy barqarorlikni oshirish va tizimni modernizatsiya qilishda muhim ahamiyatga ega. Shu bois ESG asosida risk-menejmentni rivojlantirish, hisobot standartlarini joriy etish va barqaror sug‘urta mahsulotlarini kengaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”. – Toshkent, 2019
2. Habib A. ESG performance and financial distress: Evidence from global firms // *Journal of Business Ethics*. – 2023. – Vol. 185, No. 2. – P. 345–362.
3. Dua P., Sharma S. ESG disclosure and cost of capital in emerging economies // *Global Finance Journal*. – 2024. – Vol. 60. – Article 100789.
4. Yin J., Li X., Xu L. ESG performance and cost of capital: Evidence from Asian markets // *Pacific-Basin Finance Journal*. – 2025.
5. Mushafiq M., Sohail M. T., Ali A. CSR and financial risk mitigation: Evidence from global markets // *Corporate Social Responsibility and Environmental Management*. – 2023. – Vol. 30, No. 2. – P. 789–803.
6. Mirza N., Naqvi B., Rahat B., Rizvi S. K. A. Price reaction of sustainable investments during COVID-19 pandemic // *Finance Research Letters*. – 2020. – Vol. 36. – Article 101669.
7. Tang D. Y. The value of ESG performance in emerging markets // *Journal of Financial Economics*. – 2022.
8. Berg F., Koelbel J. F., Rigobon R. Aggregate confusion: The divergence of ESG ratings // *Review of Finance*. – 2022. – Vol. 26, No. 6. – P. 1315–1344.
9. Cherkasova V., Nenuzhenko O. ESG performance and financial outcomes in emerging markets // *Emerging Markets Review*. – 2022. – Vol. 52. – Article 100901.
10. Cerón L. Á. M., Gómez López J. M., Caicedo Domínguez Y. C., Diaz Olaya J. P. ESG integration and financial stability trade-off in emerging markets // *International Journal of Financial Studies*. – 2026. – Vol. 14, No. 2. – Article 26.
11. Azimov R. S. Moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va risklarni boshqarish masalalari // *Iqtisodiyot va moliya*. – 2020. – №3. – B. 45–52.
12. OECD. *Global Insurance Market Trends 2024*. – Paris: OECD Publishing, 2024.